

**TEMIR YO'L TRANSPORTIDA XIZMAT KO'RSATISH**  
**FAOLIYATINI BAHOLASH TAVSIFI**

**Rahmonov G'ayrat**

TATU, "Menejment va marketing" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Yo'lovchilarni tashishdagi qulayliklarni inobatga olishdan tashqari muntazam zamonga mutanosib tarzda takomillashtirib borish temir yo'l kompaniyasining iqtisodiy barqarorligini ta'minlanishiga bevosita xizmat qiladi. Shunga ko'ra, uni baholash yuzasidan ijtimoiy, salomatlik, texnik, ekologik va ma'naviy ta'sir natijasidagi baholashlarni shkalasimon yo'lovchi tomonidan olish orqali aniqlash mumkin. Mazkur maqolada temir yo'l transportida xizmat ko'rsatishning baholanishini qisqacha tavsifi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy ta'sir, xizmat ko'rsatish, qulaylik va uning ustunligi, xizmatni shakllantirish shkalasi.

**Description of assessment of service activities in railway transport**

**Abstract.** In addition to taking into account the convenience of passenger transportation, regular improvements in proportion to time directly serve to ensure the economic stability of the railway company. Accordingly, it can be determined by taking the scale passenger's evaluations of social, health, technical, ecological and spiritual impact. This article provides a brief description of the assessment of railway transport services.

**Key words:** social impact, service provision, convenience and its advantage, scale of service formation.

Ijtimoiy ta'sir deganda insonning tabaqaviy jihatdan subardinatsion tavsifining chegaraviy saqlanishi, uyquga muhtojligini qondiruvchi qulayliklar, yoshga doir qulayliklarga ega jihatlar singari elementlar majmui tushuniladi.

Salomatlik jihatdan e'tirof etilgan ta'sir temir yo'l transportining gigiyenik tozaligi, ichki haroratning salomatlikni yaxshilashga xizmat qilishi, tibbiy

yordamning mavjudligi va sifatliligi singari elemntlarni qamrab oladi. Texnik ta'sir ostida yo'lovchilarining texnik vositalardan foydalana olish imkoniyaga ega bo'la olish bilan bog'liq qulayliklar nazarda tutiladi, oddiygina qilib izohlasa, bu xizmatlar ro'yxitida musiqa eshitish va quloqchinlarning sifati, shaxshiy aloqa vositalarni quvvatlantirish imkoniyati, chiroqlarni o'chirib yoqa olish va umumiy qilib aytganda mavjud texnik vositalarni boshqara olish va ulardan samrali foydalana olish imkoniyatini nazarda tutadi.

Ekologik ta'sir bugungi kunda eng ko'p talab qilinadigan qulayliklarni mujassamlashtiruvchi elementlarni qamrab olib, ular asosan shovqin, havoning tozaligi hamda noxush hidrlarning mavjudligini nazarda tutadi. Ma'naviy ta'sir poyezdda yo'lovchilarga taqdim etiladigan ko'ngilochar ko'rsatuvarlar, musiqiy dasturlar, kitob va jurnallar mutoaalasi, bolalar uchun mahsus o'yinchoqlar singari jihatlar bilan o'zining ta'sir doirasini ahamiyatini belgilab beradi.

Xizmat ko'rsatish sifatini shakllantirishda quyidagi omillarni inobatga olish orqali tizimlashtirilishi nazarda tutilgan (1-jadval):

1-jadval

#### Xizmat ko'rsatish sifatini shakllantirishdagi omillar<sup>1</sup>

	Atribut	Atribut tarkibi	Atribut ko'rsatkichi
1.	A Xavfsizlik	A1	Xavfsizlikni tekshirish
		A2	Stantsyaning jamoat xavfsizligi
		A3	Yo'lochi yukining xavfsizligi
3.	B Mutanosiblik	B1	Chiptalarning sotilishining imkoniyati daarajasi
		B2	Chitalarrni sotish samaradorligi
		B3	Transfer qulayligi
		B4	Kirish va chiqish qulayliklari

<sup>1</sup> Maskeliūnaitė, L. (2013). The Model for Multicriteria Evaluation of the Quality of Passenger Transportation by International Trains: Doctoral Thesis Vilnius Gediminas Technical University.

7.	C Ishonchliligi	C1	Poyezdlarning belgilangan jadval asosida harakatlanishi
		C2	Stantsiyalarning identifikatsion aniqligi
		C3	Poyezdlarning yetib borishini bashoraat qilish darajasi
10.	D Munosabat bildirish operativligi	D1	Yo'lovchilarga vogzal hodimlarining yordam berish darajasi
		D2	Yo'lovchilarining so'rovlariga texkor munosabat bildirish
		D3	Yo'lovchilarining shikoyatlariga texkor munosabat bildirish va ularni bartaraf etish
		D4	Poyezdlarni ushlanib qolishlariga nisbatab favqulodda ko'rildigan choralar
14.	E Qulaylik	E1	Tozalik va tartibning ta'minlanishi
		E2	Mobil qurilmalarni quvvatlash imkoniyati
		E3	Gigiyenik joylarning holati
		E4	Kutish zalining sig'imi va mavjud qulayliklar
		E5	Stantsiya hodimlarining munosabatlari

Yo'lovchining sayohat qilishiga talabi asosan turizm bilan emas, balki uning avtomobil transporti orqali keyingi xizmatdan foydalana olish uchun avtovogzalga yeta olish darajasi, undan qanchalik insonlarning foydalanishi, yo'lovchilarining harakatlanish korridorlariga yaqinligining ta'minlanishi singari jihatlar inobatga olinganligi bilan ajralib turadi. Uning ahamiyati sayohat davomida vaqtning yo'qotilishini oldini olinishi hamda olomonning trayektoriyaviy holatda boshqa yo'lovchilar uchun yo'l boshlay olishi bilan ham belgilanadi. Shuningdek, ularni yanada keng tarkibini quyidagilar bilan to'ldirish mumkin:

- (Bekatdan stantsiyaga) Sayohat vaqt;

- Chastotasi;
- Denoument;
- Vaqtinchalik va ishonchlilik darajasi;
- Olomonning to'planish darajasi;
- Harakatlanuvchi tarkib va stansiyalarning sifati;
- Stantsiyalararo yuklarni tashish qulayliklari.

Sayohat vaqtiga, chastotasi va o'tkazmalari poyezddan avtomobilga qadar hamda avtomobil ichidagi vaqt (samarali sayohat vaqt), kutish vaqtiga (xizmat ko'rsatish chastotasi funksiyasi) va o'tkazmalar doirasida har bir shaxs uchun hisoblanishi mumkin bo'lgan yagona umumiyligi sayohat vaqtiga (GJT) o'lchovi sifatida birlashtiriladi. GJT elementlari, shuningdek, quyida tavsiflanganidek, qo'shimcha sifat ko'rsatkichlarini, jumladan, haddan tashqari yuklanish darajasini va harakatlanuvchi tarkib sifatini hisobga olgan holda tortilishi mumkin. GJTning pasayishi xizmatga talabning kamida 2% ga oshishiga olib keladi. Qisqa masofaliga xizmatlar uchun, masalan, shaharlarda, o'zgarishlar chastotasining ta'siri juda muhim bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu ko'pincha osonroq va arzonroq bo'lishi mumkin bo'lib, haqiqiy sayohat vaqtini qisqartirish orqali emas, balki chastotani oshirish orqali xizmatning jozibadorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan o'tkazuvchanlikning oshishi natijasida yuzaga keladigan boshqa ta'sirlarga qo'shimcha qiymat sanaladi hisoblanadi. Bunga yorqin misol sifatida Yandex Go, Uklon hamda MyTaxi singari avtoxizmatlardan foydalanishning vaqtiga, olomonning to'planishi hamda undan foydalanish darajasiga qarab yo'llkiraning o'zgarishini misol qilib keltirish mumkin.

Tadqiqot doirasida shakllantirilgan baholash tizimini amaliy tadbig'iini amalga oshirish talab etilib, uning tahliliy asosga ko'ra mamlakatimizda temir yo'll transportida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish yuazsidan muammolarni aniqlash uchun tavsiyaviy xarakterini namoyon etadi.

Yuqorida ishlab chiqilgan baholash tizimida ba'zi iqtisodchi olimlarning izlanishlaridan ham foydalanilgan bo'lib, undagi mezonlar yuzasidan me'yoriy

ko'rsatkichlar muallif tomonidan ishlab chiqilgan hamda jahon standarti inobatga olingan. Mazkur baholash tizimini faqatgina temir yo'l transportining poyezdida yo'lovchilarni tashish bilan bog'liq xizmatini baholash maqsadida qo'llash mumkin bo'lib, ilgari bu baholash mamlakatimizda amalga oshirilmagan, oshirilgan bo'lsada hech qanday rasmiy va ishlab chiqarish manbasida qayd etilmagan. Shunga ko'ra, biz tomonidan ishlab chiqilgan baholash usulini mamlakatimizdagi temir yo'l transportida qo'llashning ahamiyati va dolzarbli oshadi hamda uning qo'llanilishi samarali natijaviylikka yetaklashi ehtimolli kutiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. G'ayrat I., Olim M., Davlat R. Klaster tizimining qishloq xo'jaligi samaradorligiga ta'siri //Agroiqtisodiyot.–Toshkent. – №. 1. – C. 20-23.
2. Ismatulloyevich R. G. THE IMPACT OF CYBER THREATS ON E-COMMERCE SITES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 274-284.
3. Fazliddinovich R. G. Some disadvantages of the architectural design of residential buildings and their solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 411-416.
4. Raxmonov G'.I. Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili. "YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT" ijtimoiy, iqtisodiy ilmiy ommabop jurnal, 2024-yil, may. № 5-son, 557-562
5. Shokirovna B. Z., Xurram o'g'li X. S. INNOVATIVE FOUNDATIONS OF A UNIFIED ECONOMY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 110-113.
6. Shokirovna B. Z., Muxayyo Y., Xurram o'g'li X. S. TOPIC: DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN //Scientific Impulse. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 42-45.

7. Shokirovna B. Z., Xurram o'g'li X. S. INNOVATIVE FOUNDATIONS OF A UNIFIED ECONOMY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 110-113.